



Dolzarb 90 kun

KO'HNA TOSHKENT BOLALAR NIGOHIDA

Inson qaysi soha vakili bo'lmasin, bolaligini eslasa ko'z oldida maktabda kechgan ta'til davrlari jonlanadi. To'garaklar, ayniqsa, tasviriy san'at to'garagi va rasm daftariga rangli qalam bilan bosib-bosib chizilgan beo'xshov tasvirlar bir-bir ko'z oldidan o'tadi. Rivojlangan davlatlarda ham bolalarning sinfdan tashqari bo'sh vaqtin to'garaklar orqali tashkil etishi bejiz emas. Bunday to'garaklar bolalar ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Toshkent shahri Olmazor turmanida joylashgan 46-maktabda "Dolzarb 90 kunlik" tashabbusi doirasida "Quyosh" yozgi sog'lomlashtirish maydonchasida o'quvchilarining ijodiy salohiyati va jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan to'garaklar faoliyat olib bormoqda. Ularga "Turon"

axborot-kutubxona markazi ijodiy xodimlari va maktab o'qituvchilar bosh-qosh bo'lmoqdalar.

Ta'tilning ilk kunlaridan reja asosida ish boshlagan "Tasviriy san'at va kitob grafikasi" to'garagida surat chizish bilan bir qatorda kitob mutolaasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Yosh havaskor rassom-

larga tasviriy san'atning turli janrlari haqida tushuncha berilib, rangtasvirning turli texnikalari orqali chizish mashqlari olib borilmoqda. Qolaversa, ko'hna Toshkentning tarixiy me'moriy yodgorliklari fotosuratlarini tahlil qilib, ajdodlarimiz yashab ijod qilgan manzillar va o'sha davrdan bizgacha yetib kelgan milliy osori-atiqalar suratlarini chizishmoqda. Mashg'ulotlar dasturi nihoyasiga yetganidan so'ng "Turon" axborot-kutubxona markazida bolalar chizgan suratlar ko'rgazmasi Mustaqillik bayrami arafasida namoyish etilishi ko'zda tutilgan.

Bolalar surat chizishni o'zlash-tirish bilan bir qatorda sog'lomlashtirish maydonchasida jismoniy faolligini oshirib, turli sport va san'at yo'nalişidagi to'garaklarda ishtirok etmoqda. Bu to'garaklar ishini to'g'ri yo'lga qo'yishda maktab direktorining ma'naviy-ma'rify ishlar bo'yicha o'rinosari Norgul Eshqulova, tabiiy fan o'qituvchisi Nozima Yorboboyeva, ingliz tili fani o'qituvchisi Asal Karimovalar ijodiy yondashmoqdalar. Ayniqsa, nafis harakatlar, go'zallik va ijod uyg'unlashgan "Raqs gimnastikasi" to'garagi o'quvchi-qizlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Ular orqali qizlarimizning o'ziga ishonchi ortadi, aktyorlik mahorati rivojlanadi, va eng muhim, milliy raqs san'atiga muhabbat uyg'onadi.

Maktab o'quvchilarining yozgi ta'til davomida o'zi qiziqqan fanlarni o'rganishi, ijodiy bandligi yangi o'quv yilida sog'lom ta'llimi muhitni shakllantirish yo'lida muhim qadamlardan biri bo'ladi, albatta.

Davron RAJAB



Jarayon

INDIVUDUAL TA'LIM MUHITIDA

tadqiqotchi talabadan kreativ pedagog tayyorlash

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti "Biologiya" kafedrasi tomonidan talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida Tabiiy fanlar fakulteti strategiyasi bo'lgan: "Eshitdim, ko'rdim, bajardim" tamoyili asosida kafedra professor-o'qituvchilar hamda fakultet iqtidorli talabalari tomonidan "Individual ta'limga muhitida tadqiqotchi talabadan kreativ pedagog tayyorlash!" nomli tadbir o'tkazildi.

Ustozlar rahbarligida "Biologiya" kafedrasida pedagogik ta'limga innovatsion klasteri oly ta'limga muassasasining umumta'limga muktablariga (tabiiy fanlarni o'qitish)da metodik yordam ko'rsatish, ta'limga sifatini oshirish, o'qituvchilarini uzuksiz kasbiy rivojlantirish hamda zamonaviy ta'limga yondashuvlarini tafbiq etish, bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish orqali oly ta'limga qamrovni oshirish,

dars mashg'ulotlari va o'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha ishlar olib borilmoqda va bundan talabalarning 4+2 amaliyotida ham keng foydalanim kelinmoqda.

Tadbirimizning birinchi qismi, strategiyaning "Eshitdim" qismiga bag'ishlangan bo'lib, unda biologiya fanini

o'qitishda pedagogik ta'limga innovatsion klasteri asosida 2-kurs talabalari tomonidan tayyorlangan mahorat darslari havo-la etildi.

"Nerv sistemasi" mavzusidagi mahorat darsi jarayonida o'qituvchi bilan birgalikda talabaning faolligi ham ta'minlandi.

Tadbirning ikkinchi "Ko'rdim" qismida "Biologiya" kafedrasining magistrant va bakalavriat talabalari tomonidan ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko'rsatib berildi:

1) Havo mikroflorasi hamda uning analizi (D.Jovliyeva).

2) Quyon qonining shaklli elementlari aniqlash (Z.Sobirova).

3) DNKnijajratib olish.

4) Viruslarning 3D modelini shakllantirish.

5) Tuban o'simliklar genofondini o'rganish.

Dunyo ta'limga barcha talablariga to'liq javob bera oladigan "Xalqaro o'qituvchi" degan nufuzga ega bo'lish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xalqaro o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan "Zamonaviy biologiya va xalqaro o'qituvchi tayyorlash" fanidan ta'limga olayotgan talabalarning "Mikroskopik olam" mavzusi asosida tayyorlagan chiqishlari ham tadbir ishtirokchilarida katta taassurotlar qoldirdi.

**Sharofatxon RO'ZMATOVA,
CHDPU "Biologiya"
kafedrasi o'qituvchisi**

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston ta'limga va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-5991. Tiraji-5728. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bositgan. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalgalashirishi shart. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Gazetaning saytiga o'tish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

- tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxreddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

